

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>J.Qodirov</b>	
Shaxsga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya ta'limi jarayonida pedagogik monitoringni amalga oshirish omillari.....	99
<b>M.Hamidjonov, N.Shodilbekov</b>	
Futbolchilarning ruhiy va jismoniy jihatdan tayyorlashning asosiy usul va vositalari.....	103
<b>B.Qurbonova</b>	
Talabalarni hamkorlik pedagogikasi asosida ijtimoiy hayotga tayyorlashda moslashuvchanlik imkoniyatlarini oshirishni modellashtirish.....	107
<b>D.Xakimova</b>	
Innovatsion salohiyat pedagog faoliyatining ajralmas qismi.....	111
<b>B.Umarov</b>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	114
<b>Sh.Ro'zaliyev</b>	
"Geymifikatsiya" va "Didaktik jarayonlar"ning metodik tavsifi.....	118
<b>F.Yuldashev</b>	
Ko'ngilli yong'in-qutqaruvchilarni o'qitishda interaktiv trenajyorlardan foydalanishning ahamiyati.....	123
<b>A.Rajabov</b>	
Mirbobo Naqshbandiy qalb zikri va uning turlari to'g'risida.....	129
<b>Z.Xamraqulov</b>	
Jinoyat huquqining o'qitilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish asoslari.....	133
<b>S.O.Omonova</b>	
O'zbekistonda sportni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati va bunda xotin-qizlar ishtiroki.....	138
<b>A.T.Tuychiyev</b>	
Raqamli texnologiyalar davrida tanqidiy fikrlashning ahamiyati.....	142
<b>N.E.G'olibjon</b>	
Oliy ta'lim talabalarining jismoniy sifatlarini aylanma mashqlar asosida rivojlantirish usullari.....	149
<b>J.B.Hamraqulov</b>	
Talabalarda ekologik axloqiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari.....	154

## IQTISODIYOT

<b>M.Adxamov</b>	
Kichik mamlakatlarning milliy innovatsiya tizimlari raqobatchilik masalasi.....	158
<b>A.A.Oripov</b>	
Risklarni boshqarish tizimi asosida xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorligini baholash.....	161

## FALSAFA

<b>M.Qaxxarova, M.Raximshikova</b>	
Yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish va tarbiyalash mummosi.....	169
<b>A.Sufiyev</b>	
Tadbirkorlik madaniyatini oshirishning aksiologik va pragmatik omillari.....	175
<b>B.G'aniyev</b>	
Markaziy Osiyo mutafakkirlarining fuqarolik jamiyati haqida ilk ijtimoiy-falsafiy qarashlari.....	181
<b>S.Yuldashev</b>	
Jamiyat transformatsiyalashuvining yangi ijtimoiy-madaniy usullari.....	186
<b>Sh.Usanov, E.Avazov</b>	
Millatlararo munosabatlar mustahkamlanishida Surxondaryo viloyat turkman milliy-madaniy markazining o'rni.....	190
<b>M.Choriyeva</b>	
"Shoxnoma"da diniy ta'limotlar.....	195
<b>K.Saydazimov</b>	
Baholash va normalar mantig'ida axloqiy qadriyatlar.....	199
<b>A.Mo'ydinov</b>	
Ma'rifatli jamiyatni qurish va ma'rifatli inson sensualistik qarashining mohiyati.....	204

**MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING FUQAROLIK JAMIYATI HAQIDA ILK  
IJTIMOIY-FALSAFIY QARASHLARI**

**РАННИЕ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ МЫСЛИТЕЛЕЙ ЦЕНТРАЛЬНОЙ  
АЗИИ НА ГРАЖДАНСКОЕ ОБЩЕСТВО**

**EARLY SOCIO-PHILOSOPHICAL VIEWS OF CENTRAL ASIAN THINKERS ON CIVIL  
SOCIETY**

**Gʻaniyev Baxodirjon Sodiqjonovich<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Gʻaniyev Baxodirjon Sodiqjonovich**

– Fargʻona davlat universiteti f.f.D. (DSc), professor v.b.

**Annotasiya**

*Maqolada Markaziy Osiyoda fuqarolik jamiyati toʻgʻrisidagi gʻoya va qarashlarning paydo boʻlishi hamda tarixiy evolyutsiyasini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq qilishga xarakat qilingan. Mualliflar tomonidan Markaziy Osiyolik buyuk qomusiy allomalar, jumladan: Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy hamda davlat va jamoat arboblari Amir temurlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini bugungi oʻrganish kerakligi haqida asoslab berishga xarakat qildi.*

**Аннотация**

*В статье сделана попытка социально-философски исследовать возникновение и историческую эволюцию идей и взглядов на гражданское общество в Центральной Азии. Авторами была предпринята попытка обосновать социально-политические взгляды великих среднеазиатских ученых-камуси, в том числе: Абу Насра Фараби, Ибн Сины, Алишера Навои, а также государственных и общественных деятелей Амира Темура, на необходимость сегодняшнего изучения.*

**Abstract**

*The article aims to research the emergence and historical evolution of ideas and views on civil society in Central Asia in a socio-philosophical way. The authors tried to substantiate the ijtimoi-political views of the great ancient scholars of Central Asia, including: Abu Nasr Farabi, Ibn Sina, Alisher Navoi and state and public figures Amir Temur, on the need for today's study.*

**Kalit soʻzlar:** fuqaro, madaniyat, qadriyat, ijtimoiy falsafasi, fuqarolik jamiyati, adolat, inson, shaxs, qonun.

**Ключевые слова:** гражданин, культура, ценности, социальная философия, гражданское общество, справедливость, человек, личность, закон.

**Key words:** citizen, culture, value, social philosophy, civil society, Justice, Man, person, law.

**KIRISH**

Fuqarolik jamiyatini vujudga kelishi, mohiyati va vazifalari toʻgʻrisida soʻz borganda shuni taʼkidlash zarur ki, buyuk mutafakkir, “Sharq Aristoteli”, “ikkinchi muallim” (“birinchi muallim” – Aristotel, Sharqda – Arastu nomi bilan mashhur) Abu Nasr Farobiyning nomi va ilmiy-falsafiy merosi abadiyatga muhrlanganligini taʼkidlash zarur. Talabalarga al-Farobiyning falsafiy taʼlimotini beqiyos koʻlami va chuqur ijtimoiy-falsafiy taʼlimotini beqiyos koʻlami va chuqur ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini atroflicha yoritib berish uchun katta vaqt talab qiladi, shuning uchun mutafakkirning fuqarolik jamiyati unsurlarini, shakllanishi, adolatli jamiyat barpo etish, insoniyatni baxt-saodatga erish yoʻllari toʻgʻrisidagi gʻoyalarini sharhlab berishda quyidagi asosiy jihatlarga eʼtibor qaratish lozim. Uning ilmiy-falsafiy taʼlimoti IX — XI asrlarda ilm-fan, maʼnaviyat, maʼrifatparvarlikni rivojlanishiga katta taʼsir koʻrsatdi. Buyuk qomusiy olim Ibn Sinoning bu masaladagi fikrlari Farobiy dahosini tasavvur etish va tushunishga yordam beradi. Arastuning “Metafizika” asarini ikki yuz marotaba oʻqib chiqdim, lekin uning mazmuniga tushuna olmadim, Farobiyning Arastu asarlariga yozgan sharhlarini oʻqib chiqishim bilan, menga barcha murakkab falsafiy muammolar darhol ayon boʻldi, deb yozgan edi Abu Ali ibn Sino.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Abu Nasr Farobiyning ijtimoiy qarashlarida insoniyat jamiyatining vujudga kelishining tabiiy sabablari, jamoalarga uyushgan holda rivojlanishi, axloqning shakllanishi, inson va jamiyatning oʻzaro munosabati, insoniylik, adolat, yetuk jamoa, Fozil shahar davlati komil inson, baxt-saodat kabi ijtimoiy-falsafiy nazariya va xulosalar asoslab berilgan. Uning falsafiy merosida borliq, jamiyat, inson, shahar davlat, komil inson, fuqarolik jamiyati toʻgʻrisidagi taʼlimotlar oʻzaro uygʻun holda tahlil etiladi.

Yuqorida Bahovuddin Naqshbandning “Naqshbandiya” ta’limoti to’g’risida muxtasar to’xtalishimizdan ko’zda tutilgan maqsad o’quvchilarga bu muqaddas ta’limot faqat diniy-islomiy g’oyalardan iborat bo’lmay, balki dunyoviy fuqarolik jamiyatining tayanchi bo’lgan: insonni halol-pok yashashga, o’z peshona teri bilan kun kechirish, halol mehnat qilish, uning asosida kun kechirish, barcha insoniy fazilatlariga ega bo’lish, doimo qalabda Ollohga muhabbat va har bir insonda ana shu ulug’ muhabbatni urug’i qadalgan bo’lsa u ikki dunyo saodatga musharraf bo’ladi kabi g’oyalarni etkazish zarur.

Markaziy Osiyoda, bu o’rinda hozirgi Samarqand va Buxoroyi sharifda davlat va davlatchilik g’oyalari behad rivojlanganligini ta’kidlash zarur. Bu davrning ijtimoiy-siyosiy asosiy Temur va Temuriylar saltanatining gullab — yashnashi tashkil qiladi. IX — XII asrlarda Markaziy Osiyoda beqiyos ravnaq topgan, dunyo fani va madaniyatiga daxldor bo’lgan merosni kulga sovurdi, hattoki, maktab, madrasa, madaniyat dargohlaridan tortib, kutubxonalarni, kitoblarni, Makinshoh va buyuk vazir Nizomulmulk hamda Umar Xayyomlar yaratgan Alamut qal’asidagi noyob kitoblarga Chingizxonning chevarasi Xulogunxon o’z qo’li bilan o’t qo’yadi [4.] .

Masala shundaki, jabr-zulm, istibdod va zo’ravonlikka qarshi mahalliy xalq bosh ko’tardi. Bu 1337- yilda boshlangan va 45 yil davom etgan sarbadorlar chiqishi — xalq qo’zg’oloni edi. Bu davomli qonli zaiflashtirdi, ularga qarshi keskin kurash uchun zamin yaratdi, 1365- yildagi Samarqand shahridagi sarbadorlar qo’zg’oloni hokimiyat tepasidagi mug’ul hukmdorlarini inqirozga yuz tutishiga asos bo’ldi. Amir Temur bir Tarag’ay Bahodir (1336-1405) ushbu qulay vaziyatdan foydalanib hokimiyatni qo’lga oldi.

Amir Temur shaxsi, davlati, buyuk sarkardaligi, madaniyati to’g’risida dunyo sharqshunos olimlari, xususan, temurshunos mutaxassislar tomonidan minglab tarixiy asarlar, badiiy kitoblar yozilgan. Buni o’zbek temurshunos tarixchisi Burivoy Axmedov o’z asarlarida ta’kidlab o’tadi. Ushbu o’rinda, Amir Temur va Temuriylar saltanati sharoitida fuqarolik jamiyatini ifodalovchi belgilar bo’lganmi, bo’lsa nimalarda namoyon bo’lgan savol tug’ilishi tabiiy. Bunga javoban, aytish mumkinki har qanday saltanatda, u yohud patriarxal bo’lsin, yoxud monarxiya, yoxud demokratik tamoyillarga asoslangan bo’lsin, unda xalq ommasini qatnashadi, demak fuqarolarning manfaatlari, intilishlari inobatga olinadi. Temurni yakka hokimiyatga asoslangan saltanatida ham fuqarolik jamiyatiga oid qonunlar, davlat qurilishi tizimlari, ijtimoiy qatlamlar, toifalar bo’lgan, bu esa ma’lum ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarni vujudga keltirgan. Aynan Amir Temurning “tuzuklari”da ana shu ijtimoiy-siyosiy hamda tarixiy shart-sharoitlardagi muhit aks etgan.

Temuriylar hokimiyati davrida fuqarolik jamiyatiga xos belgilar saltanatni va podshohni adolatli qonun — farmonlari, xalq ommasining yashash sharoiti, ularning moddiy, ma’naviy, huquqiy ahvoli va mezonlar bilan o’lchanadi. Masalan, Amir Temurdan keyin parchalanib ketgan va mustaqil yirik davlatlarni idora etgan Shoxruxmirzo, Jahongirmirzo, Mirzo Ulug’bek kabi buyuk davlat va ilm-fan arboblarni ko’rsatish mumkin.

O’zbek xalqi tarixi va adabiyotida fuqarolik jamiyati to’g’risidagi g’oyani mohiyati, maqsadi va xususiyatlarini buyuk bobomiz Mir Alisher Navoiyning ilmiy, adabiy-badiiy merosini o’rganmasdan turib mumkin emas. O’qituvchi Alisher Navoiyning inson, odam, jamiyat, hukmdor, siyosat, odob-axloq va boshqa ijtimoiy-siyosiy ta’limotlarini yoritishdan oldin O’zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi so’zlarini keltirish o’rinli bo’ladi: bu buyuk zot mutafakkirlarning mutafakkiri, allomalarning allomasi, g’azal mulkining sultoni — Mir Alisher Navoiy deb ta’riflagan edi I.Karimov.

Alisher Navoiy o’z davrining mashhur atoqli arbobi sifatida ham o’zining barcha dostonlarida adolatli shoh, adolatli davlat, adolatli xalqparvar jamiyat va shunga monand bo’lgan hukmdorlar, buyuk shaxslar, komil insonlarni o’z asarlarini bosh qahramonlari qilib olgan.

Alisher Navoiy (1441-1501) Fozil jamiyat qurishga doir boy ilmiy va ma’naviy meros qoldirgan. Uning barcha “Hamsa”dagi dostonlarida Fozil jamiyat, komil inson, adolatli hukmdor, yaxshilik, insoniylik mavzulari ulug’lanadi. Albatta, ushbu risola doirasida buyuk mutafakkirni Fozil — fuqarolik jamiyati to’g’risidagi ta’limotni to’laligicha sharhlash murakkab masala, shunga qaramay uning ideallari ifodalangan ayrim qarashlarini tahlil qilib berish o’quvchilar uchun foydali. Masalan, “Farhod va Shirin”, “Hayratul Abror” (“yaxshilar hayrati”) dostonlarida tasavvufiy qarashlar inson va ma’naviy hayot, olamning yaratilishi va maqsadi, insonning taqdiri va baxt-saodati to’g’risidagi falsafiy fikrlari va mushohadalari Fozil odamlar, adolatli jamoa va hukmdor, yaxshilik va bunyodkorlikka intiluvchi shaxslarning romantik obrazlari Fozil jamiyat tashkil etishning shartlari quyidagicha izohlanadi: adolatli hukmdor, taraqqiyparvar jamiyat, adolatli boshqaruv, xalq, komil

## FALSAFA

inson, ilm-fanga erishish, johillikka, birodarkushlik urushlarga chek qo'yish kabi ko'plab umuminsoniy qadriyatlar. Bunday qarashlar Navoiy orzu qilgan Fozil jamiyat unsurlariga va talablariga xos edi. Yuqorida aytib o'tilganidek Alisher Navoiyning g'oyaviy ma'rifatparvarlik va adolatparvarlik ta'limotining markazida oddiy mehnatkash xalq turgan. Halq hayoti haqida o'ylash, u haqda g'amxo'rlik qilish, zulm va baxtsizlikdan xalos qilish tilagi va mezonini shoir quyidagicha ifodalagan:

*“Odami ermas demagil odami,  
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.”*

Ta'kidlash joizki, Navoiy oddiy xalq timsolida katta va qudratli ijtimoiy kuchni ko'rdi, uni davlatning kuch-qudratini oshiradigan, mamlakat farovonligini va xavfsizligini ta'minlaydigan ishonchli asos, bir nafas bo'lsa-da xalqni esdan chiqarmaydi. “U davlatni xalq manfaatlarini ko'zlovchi, xalq orzularini amalga oshiruvchi vositaga aylantirishga, davlat arboblari xalq xizmatchilariga aylantirishga tirishdi va bu ishda o'zi namuna bo'ldi. U davlat ishlarini tartibga solishga, hukumat idoralari, saroyi yaramaslardan, xalq hisobidan zarbof to'n kiyuvchilardan, ayslu-ishrat qiluvchi isloflardan, amalparastlardan tozalash, ularni fosh etish, qamchilash uchun qo'ldan kelgan harakat qilish” zarurligini yozgan edi [5.104]. Ulug'bobomiz o'zi yashagan feodal monarxik tuzum hukmronligi sharoitida, insonparvarlik g'oyalari sodiq qolib, xalq bilan podsho to'g'risidagi g'oyani yana ham oydin va to'laroq bayon etdi. Uning fikricha, yo'lboshchi (hukmdor) bilan xalq (fuqaro) o'rtasidagi yakdillik saltanatni tayanchi va tinchlik, baxt-saodat ana shu hamjihatlikka asoslanishi lozim.

Alisher Navoiyning g'oyaviy-falsafiy va ijtimoiy-siyosiy ta'limotida fuqarolik jamiyatiga doir qarashlar xoh badiiy obrazlarda bo'lsin, xoh adolatli shoh, adolatli jamiyat haqida bo'lsin g'oyat tushunarli va xalqchil mazmunda bayon etilganini manbalarga tayangan holda sharhlab-izohlab berish lozim. Masalan, uning muhrdorlik (bosh vazir) lavozimidan ozod etilganidan keyin Husayn Boyqaroning saroy vazirlariga yo'llagan maktub — vasiyatida jamiyatni adolatli boshqarish oddiy xalqning ahvolidan doimo ogoh bo'lish, o'z vazifalarini oqilona, halol-pok bajarish qoidalari bayon etilgan: “Sizlarga Hazrati haq subxonoxu taolo bu davlat va martabani qaram qilib, podshoga yaqin bo'lish saodatini niyat qilgan ekan, iltimos shuki, uni g'urur g'aflatga yo'latmasalar va u dunyo oxirat o'kinchiga qolmasalar, ojizlarga, qo'l ostidagilarga shafqat-u mehr ko'rsatsalar va mazlumlar ishini marhamat-u yaxshi so'z bilan botirsalar, qo'pol so'zlar bilan dilrish (ko'ngli yara) darveshlar yuragini tirnamasalar va shirin so'zlar bilan darveshlar yuragidagi jarohatga malham bo'lsalar, har ishda samimiylik, shukronalikni odat qilsalar va qilmishlariga yarasha jazo olishni, qiyomatda sharmisor bo'lishni o'ylasalar, raiyat va sipoh tuzukligining garovi bo'lgan to'g'ri so'zni qo'rqmasdan gapirsalar. Yomon kirdikorlardan inson nimalarga yo'liqishini unutmasalar va o'zlarini, Xudo ko'rsatmasin, g'ururi sharob bilan mast-u behush qilmasalar. Dunyo moli uchun bir-birlari bilan olishmasalar, nafs qiynalganda sabr va chidam panohiga qochsalar, podshoh manfaati amalga oshmaguncha o'z manfaatlarini o'ylamasalar, Ollahning buyurganini qilish kerak bo'lganda, podshoh manfaati uchun ish qilmasalar, muloyimlik va himmat bilan arz qilib, Parvardigorning yordami bilan ul ishdan qutulsinlar, kattalarni ulug'lab, hurmat qilsalar” [6.11]. Ko'rinib turibdiki Alisher Navoiy davlat boshliqlarini g'oyat hushyor, sezgirlik, o'z nafsigacha berilmasdan podshoh va raiyat manfaatlarini o'zaro muvofiqlashtirib, dunyo moli uchun behuda kurashmasdan murosaimadora bilan ish yuritishlarini vasiyat qiladi. Bobomiz Mir Alisher Navoiyni vazirlarga yuborgan davlatni boshqarish to'g'risidagi o'git-nasihatlar bugungi fuqarolik jamiyatini barpo etish, faol tadbirkorlikni, innovasion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash yilida yana ham dolzarb ahamiyat kasb etishini talabalar bilan davra suhbatlarida o'rganib chiqish va zaruriy xulosalar chiqarish maqsadga muvofiq. Chunki, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev o'zining har bir chiqishi va nutqlarida mamlakatimizda adolat, vatanparvarlik, tinchlik, farovonlik va do'stlik, hamkorlik va mehnatsevarlik, tadbirkorlik tamoyillarini birinchi o'ringa qo'yadi.

#### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Alisher Navoiyning adolatli hukmdor g'oyasini keng nazariy va amaliy jihatdan o'rganish va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu borada Muqimjon Qirg'izboev kitobida keltirilgan dalillar va fikrlar diqqatga sazovor ekanligini ta'kidlash zarur. Ushbu kitobda Alisher Navoiyning adolatli hukmdor, uning fazilatlarini, ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz beradigan nohaqliklar, adolatsizliklar, munofiq'larga salbiy munosabati chuqur falsafiy va mantiqiy asoslarda talqin qilib berilgan.

Navoiyning falsafiy va ijtimoiy ta'limoti haqiqiy insoniy fazilatlar bilan yo'g'rilganligini, uning vazirlarga yuborgan maktub — nasihatnomasida yaqqol ko'rdik.

Navoiy kabi buyuk shaxsning ijtimoiy-falsafiy fazilatlari — bu adolat, mehr-u muhabbat, mehnatsevarlik, to'g'riso'zlik, vatanparvarlik, halollik insonparvarlik, qat'iylik, qahramonlik, shijoat kabi fazilatlardan iborat bo'lgan. Ushbu risola o'quv-uslubiy yo'nalishga ega ekanligini inobatga olgan holda, Alisher Navoiyning adolatli Fozil jamiyatni yuksak fazilatli, ma'naviyatli insonlar barpo etadi degan g'oyasiga alohida urg'u berish lozim. Navoiyning ta'limotini mag'izini adolat va adolatli bo'lish g'oyasi tashkil etadi va shu nuqtayi nazardan mutafakkirning merosini tadqiq va tahlil etish lozim deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan M.Qirg'izboevning ushbu masaladagi fikrlarini qisqacha ko'rib chiqamiz. Uning fikricha Alisher Navoiy Fozil jamiyat qurish to'g'risidagi g'oyasining asosiga insonni ma'naviyatini qo'yadi va ularni chuqur ta'riflab beradi.

“Ahli suvrat” — bu toifaga mansub kishilar insoniy munosabatlarning faqat shaklu-shamoyiliga (zohiriy tomoniga) muhim e'tibor beradilar. Ularga viqorli bo'lish, kibrlanish, zebziyatga berilish, viqor, o'zgalarga zulm o'tkazishdan huzurlanish kabi sifatlar mansubdir. “Suvrat ahli” uchun dunyoni qalban anglash, qalb bilan ko'rish, ezgulik his-tuyg'ulari butunlay yotdir. Ular insoniy munosabatlarning faqat tashqi ko'rinishlarini tan oladilar, mehnat ahliga e'tibor qaratmaydi, narsaning mohiyat va mazmuniga kirib bora olmaydilar. Ularning asosiy xususiyatlaridan biri taqlidchilikdir. Shaxs sifatida yetarli inson emas. Bu toifadagi kishilar kuchlilar oldida qul, ojizlar uchun zulmkor. Ular maslaksizliklari tufayli faqat bugungi kun huzur-halovati bilan yashaydilar, bu bilan bunday kishilar o'z dunyolarini kuydiradilar.

“Suvrat ahli” diniy amallarni ham faqat johil jamiyatni xush ko'radilar. O'qituvchi ushbu masalalarni o'rganish davomida Abu Nasr Farobiyning “Fozil shahar kishilari” asariga murojaat qilib, fazilatli olim kishilar va fazilatsiz, johil kishilar to'g'risidagi qarashlarini eslatib o'tishi ma'qul bo'ladi.

“Ahli ma'ni” toifadagi kishilar-yuksak tafakkur sohiblaridir. Ularning ma'niligi shundaki, bu toifadagi insonlar uchun aql-idrokli bo'lish, turli munosabatlarning mohiyat va mazmunini chuqur anglash, mulohaza qilish xosdir. Bu kabi insonlar o'z ehtiyojlari va manfaatlarining mazmun va mohiyatini o'zgalarniki bilan uyg'unlashgan holda idrok qiladilar. Shu erda o'qituvchi o'quvchi-talabalar diqqatini yana bir bor Alisher Navoiyning Husayn Boyqaroning vazirlariga Astrobod xokimligida turib yozgan nasihatlaridagi fikr mulohazalarga qaratishi o'rinli bo'ladi. “Ahli ma'ni” toifadagi kishilar jamiyat va xalq uchun xizmat qilish va yashashdan ma'naviy qoniqish oladilar va o'z-o'zidan mamnun bo'ladilar. Ular har bir xatti-harakat va voqelikning oqibatini o'ylab ish yuritadilar, bu dunyoning qisqa va o'tkinchi ekanligini chuqur his qiladilar. “Ahli ma'ni” Yaratganning ato etgan tafakkurlash fazilati vositasida dunyoni anglashga, bu yo'lda ilm-fanni egallashga va ma'rifatli bo'lishga intiladilar. Ularning asosiy maqsadi Yaratganga etishish. Shu o'rinda o'qituvchi Alisher Navoiy tasavvuf (so'fizm) ta'limotiga, uning Oloh, olam, odam haqidagi tamoyillariga muayyan darajada tarafdor bo'lganini o'quvchilarga eslatish zarur. Navoiy fikricha "ahli ma'ni" toifasiga mansub bo'lish uchun inson erkin, dovyurak, haqiqatparvar, burch va mas'uliyatni his etuvchi, kamtar, kuch va tazyiq ishlatishdan holi, xalq va din uchun fidoyi, imonli, hayoli, o'zga insonlar uchun hamdard, har qanday zulmga qarshi bora oladigan, adolat oldida har qanday boyluk, izzat-nafs va manfaatlardan voz kecha oladigan, o'z fikricha ega bo'lishi lozim [7.80-81].

Alisher Navoiy ta'rifidagi “ahli ma'ni”ga mansub bo'lish uchun, ya'ni yuksak ma'naviyat sohibi bo'lish, komil inson bo'lish insonning eng muqaddas oliy orzusidir. Alisher Navoiyning ushbu talqinini chuqur anglagan va tushungan holda o'qituvchi o'quvchilarni diqqatini muhim bir xulosaga qaratmog'i lozim. Ma'naviyat bu har bir kishi — har bir inson uchun ichki dunyosi, hayot mazmuni va mohiyatini tashkil etuvchi hodisadir. M.Qirg'izboev ushbu umum falsafiy xulosani shunday izohlaydi: dunyodagi barcha insoniyatning jamiyat sifatida yashab turishini ta'minlovchi qudratli tutqilar ham, insoniy rivojlanish yoki umuman sivilizatsiyaga erishuv, uni barqaror ushlab turuvchi va yanada takomillashtiruvchi beqiyos va hadsiz kuch ham ma'naviyatdir [8.28].

Tadqiqotimizda Alisher Navoiyning jamiyat, davlat, hukmdor masalalari to'g'risidagi fikrlarini umumlashtirib shuni ta'kidlashi lozimki, ulug' bobomizning ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy ta'limotida xalq, fuqaro va ularni manfaat — maqsadlari, orzu-intilishlarini kuylash asosiy mavzu, ustuvor yo'nalish bo'lib kelgan.

Sharq mutafakkirlari sharqona falsafaga asoslanib inson, buyuk shaxslar, adolatli hukmdorlar haqida ko'plab asarlar, dostonlar yaratganlar. Jumladan, Alisher Navoiyning zamondoshlaridan Hirotda yashagan va ijod qilgan Husayn Voiz Koshifiy ham (1440-1505) shular

## FALSAFA

jumlasidandir. U birinchi bo'lib siyosatni maqsadi va mohiyati haqida ilg'or fikrlarni ilgari suradi. O'zining "Ahloqi Muhsiniy" nomli asarida adolatli, xalqparvar, axloq va ma'naviyatga tayangan davlat va siyosatni qo'llash g'oyasini yoqlab chiqadi. Shu munosabat bilan mutafakkir jamiyat va davlatning inqirozi sabablarini hokim va hokimiyat zulmining haddan tashqari kuchayib ketishida, deb hisoblaydi: "zolim hokim, javru sitam birla raiyatga ozor berur va o'z qo'li birla davlat ildizini kesmish bo'lg'oy va bu ish birla o'zini aftodahol va parishon ahvol qolmish bo'lg'oy". U xalqqa zulm qilish — davlat ildizini kesish, degan fikri bilan zulm va haqsizlik oxir-oqibatda hukmdorni inqirozga olib keladigan bosh sababdir, degan fikrni yozadi. Xalqqa zulm qilish bilan davlatning qudratini saqlab bo'lmaydi, aksincha davlatning mustahkamligini jamiyatning barqarorligidadir deb biladi. Koshifiy "mamlakat zavoli necha nimarsadir" [8.29] degan savolni qo'yib, unga shunday javob beradi: "uch nimarsadir. 1-podshohlarga xabar Pushida (maxoriy) bo'lmoqda. 2-azazil (shayton) va siflat (tubanlik) tarbiyat topmoqda. 3-amaldorlar raiyatga (xalqqa) zulm qilmoqda". Koshifiyning ushbu g'oyalari adolatli davlatchilikni o'rnatish va mustahkamlashda g'oyat ahamiyatli bo'lgan. Mutafakkir o'z davrida jamiyat va davlat tizimini tahlil qilar ekan, jamiyat barqarorligini, uning a'zolari, podshoh va raiyat o'rtasidagi adolat va insoniylik munosabatlar, qadriyatlar bilan bog'laydi, ularning ma'naviyati, odilligi jamiyat barqarorligining poydevoridir. Hukmdor va davlat mansabdorlarining ma'naviy boyligi, raiyat bilan hamdard bo'lishi lozim. Husayn Voiz Koshifiyning jamiyatning kuchli bo'lishi davlatning kuchli bo'lishini ta'minlashini chuqur anglaydi. Shu o'rinda o'qituvchi talabalarga murojaat qilib birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ilgari surgan "kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari" g'oyasini o'tmishdagi mutafakkir Koshifiyning shu masaladagi o'xshashligi va farqi nimada deb so'rashi darsni jonlantirishga yordam beradi. Koshifiyning jamiyat, davlat, hukmdor to'g'risidagi qarashlari hozirgi davr uchun ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashi zarur.

**XULOSA**

Alisher Navoiy va Husayn Voiz Koshoviylarning jamiyat, adolatli hukmdor, hokim, podshoh va raiyat, mehnatkash xalq to'g'risidagi qarashlari insoniylik, adolat, ezgulik, do'stlik, mehr-muruvvat ko'rsatish xususidagi fikr-mulohazalari, sharqona falsafiy tafakkurlarning joziballigi va ishonchiligi bugungi mustaqillik sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzuni yoritishda O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Birlashgan Millatlar tashkilotini so'nggi 72 sessiyasida so'zlagan nutqida Markaziy Osiyo Uyg'onish davrining ko'plab namoyondalarining Islom va jahon sivilizasiyasiga qo'shgan bebaho hissasini alohida qayd etdi<sup>1</sup>. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning bevosita tashabbusi va ishtirokida 2017-yil noyabr oyida Samarqand shahrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashrifida "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusida yuqori darajadagi xalqaro anjumanni o'tkazilishi mintaqada chuqur ming yillik tarixga ega bo'lgan zamonaviy ruhda bayon etilishi chindan ham tarixiy ahamiyatga molik hodisa bo'ldi.

*Xulosa o'rnida: "Shavkat Mirziyoyev: Hamma islohotlarni, hamma harakatlarni jamiyat bilan birga qilamiz" [2.]. Mazkur so'zlar yurtimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyatining maqsad va ezgu vazifalari bilan uzviy va chambarchas bog'liqligi bilan yana ham jozibali va ahamiyatlidir.*

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaati. // URL: <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
2. <https://xs.uz/uz/post/shavkat-mirziyoev-hamma-islohotlarni-hamma-harakatlarni-zhamiyat-bilan-birga-qilamiz> // 22:30 26 Yanvar 2022
3. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug'xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug'va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2019.
4. "Jahon adabiyoti" // jurnali, fevral // 2003 yil.
5. Vohid Zohidov. Ulug'shoir ijodining qalbi. - Toshkent: "Yosh gvardiya" nashri. 1970
6. "Yosh kuch" // jurnali // 1991, 9-son
7. I.Haqqulov. "Kamol et kasbkim..." - Toshkent: Cho'lpon, 1990
8. Muqimjon Qirg'izboev. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010
9. Ganiyev B.S. (2020). Education-priority sphere of reform in the conditions of a new stage of development. Central Asian Problems of Modern Science and Education
10. Бахадыржан Ганиев (2021) Особенности предпринимательской деятельности в условиях развития гражданского общества в Узбекистане // Общество и инновации // Тошкент, 2/4, 683-692.